

## XIVA XONLIGINING AGRAR TIZIMI VA SOLIQQA TORTISH SIYOSATI (XVIII–XIX ASRLAR)

Sulaymonov Bexruzjon,

Buxoro davlat universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Yuldasheva Bibirajab,

Buxoro davlat universiteti dotsenti,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

bexruzsulaymonov2003@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xiva xonligining iqtisodiy hayoti, agrar munosabatlar, dehqonchilik va chorvachilik ahamiyati yoritilgan. Xonlik iqtisodiyotining agrar xarakterga egaligi, shuningdek, yer egaligi shakllari, soliq tizimi hamda iqtisodiy siyosatning aholining ijtimoiy hayotiga ta’siri o’rganilgan. Maqola Xiva xonligining iqtisodiy hayotini tahlil qilish orqali o’sha davr jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.*

**Kalit so’zlar:** Xiva xonligi, iqtisodiy munosabatlar, agrar munosabatlar, yer egaligi, dehqonchillik, soliq tizimi, iqtisodiy siyosat.

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается экономическая жизнь Хивинского ханства, аграрные отношения, значение земледелия и животноводства. Изучались аграрный характер экономики ханства, формы землевладения, налоговая система, влияние экономической политики на общественную жизнь населения. Статья призвана дать более глубокое представление о социально-экономической структуре общества того времени посредством анализа экономической жизни Хивинского ханства.*

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, экономические отношения, аграрные отношения, землевладение, земледелие, налоговая система, экономическая политика.

### ABSTRACT

*This article discusses the economic life of the Khiva Khanate, agrarian relations, and the importance of farming and animal husbandry. The agrarian nature of the khanate's economy, as well as the forms of land ownership, the tax system, and the impact of economic policy on the social life of the population are studied. The article serves to provide a deeper understanding of the socio-economic structure of the society of that time by analyzing the economic life of the Khiva Khanate.*

**Keywords:** Khiva Khanate, economic relations, agrarian relations, land ownership, farming, tax system, economic policy.

## KIRISH

Xiva xonligi XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyo hududida shakllangan mustaqil davlatlardan biri bo‘lib, o‘ziga xos siyosiy va iqtisodiy tizimga ega edi. Xonlik iqtisodiyoti, asosan, agrar munosabatlarga tayanar, dehqonchilik va chorvachilik asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari sifatida yetakchi o‘rinni egallagan. Shuningdek, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyati ichki ehtiyojlarni qondirish va tashqi bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Xiva xonligining Amudaryo vohasida joylashgani, sug‘oriladigan yerlarning mavjudligi va karvon yo‘llariga yaqinligi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Turon sivilizatsiyasining eng muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan Xorazm, strategik jihatdan o‘ta qulay geografik joylashuvi bilan ajralib turgan. U Amudaryoning quyi oqimidagi serhosil vodiylarni o‘z ichiga olishi bilan bir qatorda, Orol-Kaspiy pasttekisligining shimoli-sharqiy qismlari, sharqda esa Orol va Kaspiy dengizlari oralig‘idagi Ustyurt platosi va Qoraqum cho‘lining shimoliy qismi, ba’zan esa janubda Xuroson tog‘larining shimoliy tizmalarigacha cho‘zilib ketgan. Shimoli-sharqda esa Xorazmning ta’sir doirasi Qizilqum sahrosi orqali Sirdaryoning quyilishigacha yetgan.

Xiva xonligi davrida Xorazm iqtisodiy hayotining asosiy tayanchi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, ayniqsa dehqonchilik va chorvachilik sohalarida jadal taraqqiyot ko‘zga tashlanadi. Aholining asosiy hayot manbai bo‘lgan agrar sektor xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Xonlik hududida o‘zlashtirilgan yerlarning 93 foizi Janubiy Xorazmga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, ushbu mintaqada dehqonchilik mutlaqo sun’iy sug‘orishga asoslangani bilan boshqa o‘rtalasrlar Sharqiy davlatlaridan ajralib turgan. Sug‘oriladigan yerlar tarmoq ko‘rinishidagi ariq, kanal va daryolardan iborat murakkab tizim orqali suv bilan ta’minlangan.

Tuproqning tabiiy hosildorligi past bo‘lganligi sababli, u yerga ishlov berishda maxsus agrar texnologiyalar talab etilgan. Dehqonlar yerlarni eniga va bo‘yiga ko‘p martalab — ba’zida 5, 10, hattoki 20 marotaba haydab chiqqanlar. Bunday mehnat talab qiluvchi agrotexnika vositalari dehqonchilik faoliyatida unumidorlikni oshirishga xizmat qilgan. Xiva xonligi qishloq xo‘jaligida ekinlarni almashlab ekish tizimi — ya’ni dalalarga navbatma-navbat turli ekinlarni ekish amaliyoti keng qo‘llanilgan bo‘lib, bu esa yerning unumidorligini saqlab qolishda va kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo‘lgan [1].

Dehqonchilikda yetakchi o‘rin donli ekinlarga tegishli bo‘lib, ayniqsa bug‘doy, arpa va sholi kabi ekinlar asosiy oziq-ovqat manbai sifatida yetishtirilgan. Bu mahsulotlar ichki ehtiyojni ta’minalash bilan birga, ayrim hollarda savdo-iqtisodiy ayrboshlash vositasi sifatida ham xizmat qilgan.

Xiva xonligining agrar tuzilmasida dehqonchilik yetakchi o‘rin egallagan bo‘lib, ayniqsa donli ekinlar yetishtirish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lgan. Aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda bug‘doy, arpa va sholi eng muhim mahsulotlar qatoriga kirgan. Ushbu mahsulotlar ichki iste’mol ehtiyojlarini qondirish bilan birga, tashqi savdo-sotiqlida ayrboshlash vositasi sifatida ham muhim rol o‘ynagan. Ayniqsa, sholi yetishtirishning yuqori darajadagi sun’iy sug‘orish tizimlariga asoslangani voha dehqonchilik madaniyatining yuksakligini namoyon qiladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xorazm vohasi mahsulotlari, xususan don va sabzavotlar, uzoq masofalarga – G‘arbiy Osiyodan tortib, Sharqiy Osiyo, xususan Xitoyning yirik savdo markazlarigacha yetkazilgan. Mahsulotlarning uzoq masofalarga tashilishi ularning sifati va saqlanish qobiliyatining yuqoriligidan darak beradi.

Xorazm dehqonchiliginin alohida jihat – bu qovunchilik sohasidagi yuksak yutuqlaridir. Manbalarda qayd etilishicha, Xorazm qovunlari nafaqat vohaning iqlimi va agrotexnik sharoitlariga moslashgan, balki mazasi, shakli va saqlanish darajasi jihatidan ham butun Markaziy Osiyoda o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan. Mahmud ibn Valiyning “Bahr ul-asror” asarida Xorazm qovunlarining urug‘lari boshqa hududlarga, ayniqsa Balx vohasiga eksport qilingani va u yerda yangi navlar yaratishda asos bo‘lgani alohida ta’kidlanadi [2]. Bu holat vohada seleksiya ishlarining yuksak rivojlanganini, agrar innovatsiyalar mavjud bo‘lganini va ekinlarni adaptatsiya qilish borasida muhim amaliy tajriba shakllanganini ko‘rsatadi.

Qovunchilik mahsulotlari, ayniqsa oftobda quritilgan qoqi shaklida, uzoq masofalarga eksport qilingan. Ular Hindiston, Xitoy, Eron kabi mintaqalarda yuqori talab bilan sotilgan, bu esa Xorazm savdo aloqalarining ko‘lamini kengaytirgan. A.Vamberining 1864-yilda nashr etilgan “Travels in Central Asia” asarida Xiva qovunlarining Pekin (hozirgi Beijing)gacha mashhurligi qayd etilishi voha mahsulotlarining xalqaro bozordagi obro‘-e’tiboridan dalolat beradi [3]. Uning yozishicha: “Xiva mevalari shu qadar yaxshiki, ularga o‘xshashini nafaqat Eron va Turkiyada, balki butun Yevropada ham topish qiyin. Ayniqsa, Hazorasپning olmalari, Xivaning nok va uzumlari va uzoq Pekin shahrigacha mashhur bo‘lgan beqiyos ajoyib qovunlari tahsinga loyiq”.

Xorazm vohasida donli ekinlar va qovunchilikdan tashqari, bog‘dorchilik ham rivojlangan bo‘lib, uzum, anor, olma, nok, gilos va boshqa mevalarning navlari

yetishtirilgan. Bu mevalar ichki bozorlarda iste'mol qilinibgina qolmay, ayrim hollarda tashqi savdoga ham chiqarilgan. Qishloq xo'jaligining bu sohalari o'zaro uyg'unlikda rivojlanib, Xiva xonligining agrar-iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, Xiva xonligida dehqonchilik faqat oddiy xo'jalik faoliyati emas, balki o'ziga xos ilmiy-tajriba maktabi, seleksiya va innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan agrar madaniyat namoyonidir. Bu esa, Xorazm vohasining tarixiy iqtisodiy salohiyati va madaniy merosini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Xorazm vohasining o'troq agrar xo'jaligida chorvachilik ham dehqonchilik bilan baravar taraqqiy etgan asosiy tarmoqlardan biri bo'lган. Aholining ko'п qismi chorva mollari — ot, hokiz (qoramol), tuya va eshakdan turli xo'jalik ishlarida, xususan yerga ishlov berish va yuk tashishda keng foydalangan. Ayniqsa, otlar agrar xo'jalikda muhim mehnat kuchi sifatida ajralib turgan. Xorazmda boqilgan otlar nafaqat mahalliy ehtiyojlar uchun, balki savdo-sotiq va harbiy ishlarda ham muhim rol o'ynagan. Manbalarda qayd etilishicha, Xorazm otlari o'zining chidamliligi va tezligiga ko'ra Turkman va Qozoq otlari bilan tenglasha olgan, ba'zan esa ularning ayrim xususiyatlarini ortda qoldirgan.

Otlardan tashqari, tuya va eshaklar yuk tashishda, ayniqsa uzoq masofali karvon yo'llarida muhim transport vositasi bo'lган. Hokiz esa dalalarni haydash, yer haydashda asosiy yordamchi kuch bo'lган. Chorvachilikda, shuningdek, zotdor qo'ylar yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Xorazmda boqilgan qo'y zoti tarkibida turkmani, qozoqi, arabi va guzari kabi zotlar mavjud bo'lib, ular go'shti, yog'i va junining sifati bilan mashhur bo'lган [4]. Bu zotlarning turliligi va sifat ko'rsatkichlari vohaning iqlim sharoiti, yaylov resurslari hamda chorvachilik tajribasining mukammalligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, chorvachilikning rivojlanishi Xorazm vohasida nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari (go'sht, sut, yog') balki kiyim-kechak ishlab chiqarishda (jun, teri) ham muhim xomashyo manbai bo'lган. Bu esa Xiva xonligi iqtisodiy hayotining ko'п tarmoqli va o'zaro bog'liq bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi. Mazkur chorvachilik tizimi dehqonchilik bilan uzviy bog'langan holda, vohaning tabiiy-iqlimi sharoitlariga moslashgan, an'anaviy hamda barqaror agrar tuzum sifatida shakllangan edi.

Xiva xonligi davrida agrar tuzumning huquqiy va ijtimoiy asoslarini tashkil etuvchi yer egaligi tizimi murakkab va qatlamlı tuzilishga ega bo'lган. Garchi barcha yerlar davlat, ya'ni xon mulki deb hisoblangan bo'lsa-da, amalda yer egaligining turli shakllari mavjud bo'lган: davlat yerlari, xususiy yerlari va vaqf yerlari. Bu shakllar

har biri iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy tabaqalanish va davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergen.

Davlat yerlarining asosiy qismini hukmdor tomonidan zabit etilgan yoki o‘zlashtirilgan hududlar tashkil qilgan. Ushbu yerlar “zamini maita” (egasiz yer), “bekor yer” (bo‘sh turgan yer), “bo‘z yer” (yangi o‘zlashtirilayotgan yer) kabi nomlar bilan manbalarda tilga olinadi. Yerlar, odatda, davlat tomonidan ijara berilgan bo‘lib, dehqonlar undan foydalanish evaziga yer solig‘i to‘laganlar. Dehqonlar o‘z faoliyatini ushbu yerlar asosida tashkil etgan bo‘lib, ular “yarimchilar” deb atalgan — bu atama hosilning yarmini davlatga yoki yer egasiga topshirish majburiyatiga asoslangan edi.

Davlat yerlarining boshqa bir manbai — fuqarolik shartnomalari asosida yoki meros huquqi orqali davlatga o‘tgan mulkler edi. Masalan, vorisi qolmagan yer egalari vafot etgan taqdirda, Shariat qonunlariga ko‘ra, ularning yer-mulkleri sulton yoki xon mulkiga aylangan (“zamini matruka”). Shuningdek, jinoiy harakatlar sodir etgan yoki siyosiy sabablar bilan aybdor deb topilgan shaxslarning yer-mulkleri musodara qilinib, davlat tasarrufiga o‘tkazilgan.

Xon o‘zining yaqin qarindoshlari, sadoqatli amaldorlar va turli ijtimoiy toifadagi xizmat ko‘rsatgan kishilarga davlat yerlarini ijara berган. Bu yerlar vorislik huquqi asosida, ma’lum darajadagi soliq va mehnat majburiyatlarini bajarish sharti bilan taqdim etilgan. Ayrim toifalar, jumladan xon qarindoshlari, ruhoniylar, tarxon yorlig‘i olgan shaxslar, davlat soliqlaridan ozod etilgan.

Shu bilan birga, xususiy yer egalari, ayniqsa mayda egalik shaklidagilar, zamon o‘tishi bilan iqtisodiy bosim va ijtimoiy tengsizliklar sababli o‘z yerlaridan ajralib qolganlar. Bu holat Xiva xonligi jamiyatida mulkiy tabaqalanish jarayonini kuchaytirgan.

Yana bir muhim yer egaligi shakli — bu vaqf yerkari bo‘lib, ular masjid, madrasa, xonaqoh, qabriston kabi diniy muassasalarga tegishli bo‘lgan. Bunday yer-mulklar odatda xonlar, amaldorlar yoki badavlat shaxslar tomonidan vaqf qilingan. Ular mustaqil iqtisodiy asosga ega bo‘lib, ulardan kelgan daromad diniy muassasalar faoliyatini ta’minlashga yo‘naltirilgan. XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligidagi vaqf yerlarining umumiylari maydoni 170–175 ming tanobni tashkil qilgan, bu esa vaqf tizimining davlat iqtisodiy va diniy hayotidagi salmoqli o‘rnidan dalolat beradi [5].

Xiva xonligi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumining ajralmas qismi bo‘lgan soliq va majburiy to‘lovlar tizimi, ayniqsa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari – dehqonlar va chorvadorlar zimmasiga katta yuk bo‘lib tushgan. Bu tizim murakkab va ko‘p qatlamlili bo‘lib, soliq shakllari iqtisodiy faoliyatning har bir bosqichiga taalluqli bo‘lgan. Soliq turlari sonining ko‘pligi va ularning hajmi mehnatkash xalqning

iqtisodiy holatini og‘irlashtirgan, ayrim hollarda esa yer egalari va dehqonlarning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘lgan.

Asosiy soliq turi “salg‘ut” deb nomlangan bo‘lib, bu yerga egalik va undan foydalanish evaziga undiriladigan soliq edi. Bunga qo‘s Shimcha ravishda bir martalik to‘lov – alg‘ut, harbiy va davlat ehtiyojlari uchun yig‘iladigan miltiq puli (qurox xaridiga), uloq tutuv (ot va tuyalarni safarbar etish), arava oluv (transport vositalarini jalg qilish), qo‘nalg‘a va so‘ysun (amaldorlar joylashgan vaqtida ularni joylashtirish va mehmon qilish) kabi to‘lovlardan mavjud edi.

Bundan tashqari, ma’muriy apparatni ta’minlashga yo‘naltirilgan chopar puli, tarozuyona (bozor muassasalari uchun to‘lov), mirobona (suv ta’minoti xizmatlari uchun), darvozabon puli, mushrifona (hosil nazoratchisiga to‘lov), qorovul puli, xazinachi haqi, afanak puli (ish majburiyatidan ozod etish to‘lovi), chibik puli (ommaviy mehnat majburiyatidan ozodlik uchun to‘lov) kabi 18 dan ortiq soliq va to‘lovlardan amal qilgan [6].

Bu to‘lovlardan asosan natural shaklda – hosil, chorva yoki boshqa mahsulotlar bilan undirilgan bo‘lib, ularning miqdori ko‘pincha sub’ektiv belgilangan va soliq yig‘uvchilarning shaxsiy manfaatlariga xizmat qilgan. Natijada, aholining ko‘philigi haddan tashqari soliq bosimidan aziyat chekkan, soliqlarni to‘lay olmagan mayda yer egalari esa o‘z yerlaridan voz kechishga majbur bo‘lgan.

Mazkur og‘ir iqtisodiy holatni yumshatish va davlat boshqaruvini markazlashtirish yo‘lida Xiva xoni Muhammad Rahimxon I tomonidan olib borilgan iqtisodiy islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. U soliq tizimini soddalashtirish va markazlashtirish maqsadida xiroj – mahsulot shaklidagi to‘lovnini pul ko‘rinishidagi salg‘ut bilan almashtirdi. Bu o‘zgarish orqali fuqarolarning soliq majburiyatlarini aniq va barqaror shaklga keltirildi.

Muhammad Rahimxon I davrida soliq yig‘ish ishlarini markaziy hokimiyat zimmasiga olish, barcha tushum va chiqimlarni maxsus moliyaviy daftarlari orqali yuritish, xon tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazorat qilish tizimi joriy etildi. Bu orqali mahalliy amaldorlarning soliqlardan o‘zlashtirishini cheklash, davlat xazinasiga tushadigan daromadlarni oshirish hamda iqtisodiy tartibni mustahkamlash imkoniyati yaratildi [7].

Shuningdek, yangi tizimda soliqlar yer maydonining kattaligi, mahsulot turi va hosildorlik darajasiga qarab belgilanadigan bo‘lib, bu adolat tamoyillariga yaqinlashishga xizmat qildi. Muhammad Rahimxon I tomonidan amalga oshirilgan bu islohotlar, albatta, faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy barqarorlikni tiklash yo‘lida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi.

Muhammad Rahimxon I tomonidan joriy etilgan soliq islohoti natijasida Xiva xonligining mulkdorlari iqtisodiy imkoniyatlariga qarab aniq tartibda uch guruhga ajratilgan. Bu yondashuv davlat moliyaviy siyosatiningadolat tamoyillariga yaqinlashuvi sifatida e'tirof etiladi. Birinchi guruhga 10 tanobdan ortiq yerga ega bo'lgan yirik yer egalari kiritilib, ular yer hajmidan qat'i nazar, davlatga yiliga 3 tillo (ya'ni 54 tanga) miqdorida qat'iy soliq to'laganlar. Ikkinci guruhga 5–10 tanob yeri bo'lgan mulkdorlar mansub bo'lib, ularning yillik solig'i 2 tillo (36 tanga) etib belgilangan. Nihoyat, uchinchi guruhnini tashkil etgan mayda yer egalari (5 tanobgacha yeri borlar) esa 1 tillo (18 tanga) miqdorida soliq to'laganlar [8].

Yersiz yoki kam yerli ijarachilar, ya'ni korandalar, bevatan dehqonlar, vaqf yerlari foydalanuvchilari ham alohida toifani tashkil etgan. Ularning soliq majburiyati ijaraga olingan yer maydoniga muvofiq belgilanib, masalan, 15 tanob yerni ijaraga olgan dehqon 34 tanga, 10 tanob uchun 22 tanga, 6–5 tanobgacha bo'lgan yerlar uchun esa 13 tanga to'lashlari belgilangan edi. Bu esa ijarachilarni ham soliq tizimiga faol jalb qilganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xiva xonligi hududidagi yarim ko'chmanchi va o'troq chorvador aholining iqtisodiy faoliyatiga ham soliq solingan bo'lib, ular davlatga xiroj (yer solig'i) bilan bir qatorda, chorvachilikka aloqador zakot (qoramol solig'i) ham to'laganlar. Bu jihatlar davlat tomonidan agrar qatlamni to'liq iqtisodiy nazorat ostida saqlashga intilganini ko'rsatadi. Xonlikda agrar sohaga aloqador infratuzilma va obodonlashtirish ishlari keyingi yillarda sezilarli darajada jadallahdi. Ayniqsa, Said Muhammadxon (1860–1863) davrida Amudaryo o'ng sohilidagi bo'z yerlarga suv chiqarilib, yangi serhosil yerlar o'zlashtirildi. Bu holat vohaning demografik va iqtisodiy salohiyatini kengaytirish bilan bir qatorda, Xiva xonligining agrar strategiyasida yangi bosqichni boshlab berdi.

Said Muhammad Soniy davrida (1863–1864) mamlakatni iqtisodiy barqarorlashtirish yo'lida tadbirkorlik, savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga keng yo'l ochildi. Shahar markazlarida savdo rastalari, do'konlar va ustaxonalarining kengaytirilishi orqali ichki bozor infratuzilmasi mustahkamlandi. Xonlikning Buxoro, Afg'oniston, Eron, Hindiston, Rossiya bilan olib borgan savdo aloqalari esa Xiva iqtisodiyotining tashqi integratsiyasini ta'minladi. Bu davrda Xiva shahrining o'zida 700 dan ortiq hunarmand kosiblarning faoliyati qayd etilgan, bu esa shaharning iqtisodiy markaz sifatida rolini mustahkamladi.

Navbatdagi xon Muhammad Rahimxon II davrida agrar sektorni yanada takomillashtirish va suv bilan ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Shohobod (Shovot), Polvon, Qilichniyozboy, Lavzon kabi qadimiy kanallar ta'mirlanib, suv o'tkazish imkoniyatlari kengaytirildi. Bundan tashqari, Sho'raxon va

Bo‘zyop kanallari rekonstruksiya qilindi, Lavzon kanalidan pastda esa Amudaryodan suv oluvchi 39 chaqirimli yangi kanal barpo etildi. Bu ishlar natijasida minglab tanob yerlar qayta o‘zlashtirilib, eski yer maydonlari sug‘orishga yaroqli holga keltirildi.

Ushbu soliq islohotlari va sug‘orish inshootlarining rekonstruksiyasi Xiva xonligida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, aholining turmush darajasini barqarorlashtirish va davlat xazinasiga tushadigan daromadni ko‘paytirish yo‘lida muhim bosqich bo‘ldi. Bu tarixiy voqealar Xiva xonligining iqtisodiy siyosati ichida o‘ziga xos o‘zgarishlarni boshlab bergenini ko‘rsatadi.

## XULOSA

Xiva xonligida iqtisodiy munosabatlar asosan agrar–dehqonchilik, chorvachilik hunarmandchilik va savdo aloqalariga tayanardi. Xonlikda yer davlat mulki hisoblanib, undan foydalanish uchun turli ijtimoiy qatlamlar – mulkdorlar, ijarachilar va chorvadorlar davlatga belgilangan miqdorda soliq to‘lab turardilar. Muhammad Rahimxon I davrida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida soliq tizimi soddalashtirildi: mahsulot solig‘i o‘rniga pul solig‘i (solg‘ut) joriy etildi va soliqlar markaziy hokimiyat tomonidan nazorat qilina boshlandi. Bu esa xazinaga tushumlar oshishiga, iqtisodiy boshqaruvning barqarorlashishiga olib keldi. Shuningdek, irrigatsiya inshootlarining qurilishi va ta’miri orqali yangi yerlar o‘zlashtirildi, bu esa qishloq xo‘jaligi salohiyatini oshirdi. Dehqonchilikda bir qancha yutuqlarga erishildi ayniqsa donli va poliz ekinlari sohasida. Umuman olganda, Xiva xonligi iqtisodiyoti o‘z davrida murakkab, ammo izchil rivojlanayotgan tizim bo‘lgan.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Zaks B.A. Xorazm vohasining irrigatsiyasi va dehqonchiligi tarixi. Toshkent: 1953.
2. Mahmud ibn Valiy. Bahr ul-asror fi manaqub ul-axyor. XVII asr qo‘lyozma manbasi.
3. Vamberi A. Markaziy Osiyoga sayohat (Travels in Central Asia). London: John Murray, 1864.
4. “Xorazm” maqolasi // O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12-jild. Toshkent: 2006.
5. Xaydarov A., Salohiddinov A., Raximov B. va boshq. O‘zbekiston tarixi. 2-jild. Toshkent: Fan, 2000. B. 213.
6. G‘ulomov Ya.G. Xiva xonligi tarixidan. Toshkent: 1959.
7. Matniyozov M., Ollamov Y. Xorazm davlatchiligi tarixi. Urganch: 2009. B. 170.
8. Axmedov B., To‘laganov A. Xiva xonligi tarixi. Toshkent: Fan, 2006.